

PEDAGOGIK MULOQOT TA'LIM SIFATI KAFOLATI

Voxidova Norposhshaxon Xabibullayevna

*Nizomiy nomidagi Ўзбекистон миллий pedagogika universiteti "Pedagogika"
kafedrası professori, pedagogika fanları doktori.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim jarayonida muloqot ko'nikmalarining ta'lim sifatiga ta'siri xususida fikr yuritilib, o'qituvchilarga kommunikativ madaniyat darajasini oshirishga oid tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: pedagog, o'qituvchi, imkoniyat, mutaxassis, muloqot, tarbiyaviy faoliyat, kommunikatsiya, maqsad, kasbiy kompetentlik.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ОБЩЕНИЕ КАК ГАРАНТИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

Вохидова Норпошшахон Хабибуллаевна

*Доктор педагогических наук, профессор кафедры «Педагогика»
Национального педагогического университета Узбекистана имени Низами.*

Аннотация: В статье рассматривается влияние коммуникативных навыков на качество образования в образовательном процессе и даются рекомендации педагогам по повышению уровня коммуникативной культуры.

Ключевые слова: педагог, учитель, возможность, специалист, общение, образовательная деятельность, коммуникация, цель, профессиональная компетентность.

PEDAGOGICAL COMMUNICATION AS A GUARANTEE OF EDUCATIONAL QUALITY

Norposhshakhon Khabibullayevna Vokxidova

*Doctor of Pedagogical Sciences, Professor of the Department of Pedagogy of the
National Pedagogical University of Uzbekistan named after Nizami.*

Abstract: This article examines the influence of communication skills on the quality of education in the educational process and provides recommendations for teachers on improving their communicative culture.

Keywords: educator, teacher, opportunity, specialist, communication, educational activity, communication, goal, professional competence.

Ta'lim tizimida sifatni oshirish bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Ta'lim sifatining barqaror va kafolatli bo'lishi ko'plab omillar bilan belgilanadi: metodik ta'minot, texnologik imkoniyatlar, o'qituvchining malakasi,

o'quv muhitining qulayligi va boshqalar. Ammo ular orasida pedagogik muloqot o'zining psixologik, ijtimoiy va tarbiyaviy mazmuni bilan alohida o'rin egallaydi. Chunki ta'lim jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchi — bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi bevosita muloqotdir. Muloqot sifati yuqori bo'lsa, ta'lim sifati ham yuksaladi; muloqot bo'g'lsa yoki noto'g'ri yo'lga qo'yilsa, ta'lim jarayonida muammolar paydo bo'ladi.

Pedagogik muloqot — bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'quv jarayonini tashkil qilish, boshqarish va baholashga qaratilgan ijtimoiy-psixologik o'zaro ta'sir jarayoni. Mazkur jarayon uch asosiy funksiyani bajaradi: axborot almashinuvi funksiyasi: ta'limning asosiy vazifasi bilim berish bo'lsa, ushbu bilimlar aynan muloqot vositasida yetkaziladi. O'qituvchining nutqi, dars mazmunini tushuntirish uslubi, tushuntirishdagi aniqlik va mantiqiylik o'quvchilarning bilimni qay darajada o'zlashtirishini belgilaydi; tartibga solish va boshqarish funksiyasi: pedagogik muloqot dars jarayonining ritmini, o'quvchilarning faollik darajasini va o'quv muhitining ijtimoiy-psixologik holatini boshqarishga xizmat qiladi. O'qituvchi muloqot orqali darsni tashkil etadi, guruhni boshqaradi, intizomni saqlaydi va o'quvchining faoliyatini to'g'ri yo'naltiradi; shaxsga ta'sir o'tkazish funksiyasi: muloqot, avvalo, tarbiyaviy jarayondir. O'qituvchi o'z nutqi, ohangi, muomalasi, talabchanligi va e'tibori orqali o'quvchining dunyoqarashi, qiziqishlari, ma'naviy qadriyatlari va ijtimoiy xulqiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Pedagogik muloqotni samarali tashkil etish ta'limda sifatli natijalarni olishni kafolatlaydi. Ta'lim sifati ko'p omillarga bog'liq bo'lsa-da, pedagogik muloqot ularning barchasini birlashtiradigan markaziy omildir. Quyida uning ta'lim sifatini kafolatlovchi asosiy jihatlari bayon etiladi.

1. O'quvchilarda o'qishga qiziqish va ichki motivatsiyani shakllantiradi motivatsiya o'quv jarayonining harakatlantiruvchi kuchidir. O'quvchilarga mehribon, tushunarli va rag'batlantiruvchi tarzda murojaat qilgan o'qituvchi ularda o'qishga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Ijobiy muloqot o'quvchida ishonch va intilish uyg'otadi.

2. Bilimni samarali o'zlashtirishni ta'minlaydi - to'g'ri tashkil etilgan muloqot bilimni tizimli, izchil va mantiqiy tarzda yetkazishga yordam beradi. O'quvchi darsni to'liq tushunadi, murakkab mavzularni oson qabul qiladi, xatolar kamayadi, savollar ko'payadi. Bu esa ta'lim sifatining pasayishiga yo'l qo'ymaydi.

3. Dars jarayonida faollik va ijodkorlikni oshiradi - interfaol muloqot o'quvchilarni savollar berishga, fikrlashga, bahslashishga, mustaqil qaror qabul qilishga undaydi. Bu esa ularda nafaqat bilim, balki kompetensiyalarni ham shakllantiradi: tanqidiy fikrlash, kommunikativ qobiliyat, jamoada ishlash ko'nikmasi va boshqalar.

4. Ijobiy psixologik muhitni yaratadi - ta'lim sifati nafaqat bilimlar bilan, balki darsdagi ruhiy holat bilan ham belgilanadi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi iliq muloqot, hurmat, e'tibor, xayrixohlik — o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, qo'rquvni kamaytiradi va darsning samaradorligini ta'minlaydi.

5. O'quvchilar shaxsida ijtimoiy va ma'naviy sifatlarga zamin yaratadi - ta'lim sifati faqat bilimlar bilan baholanmaydi. Unda tarbiya, ma'naviyat, ijtimoiy faollik ham muhim. O'qituvchining nutqi va muloqoti o'quvchilarda odob, hurmat, mas'uliyat, burch, birdamlik, vatanparvarlik kabi sifatlarni shakllantiradi.

6. O'quv jarayonini boshqarishda uzluksizlik va tartibni ta'minlaydi - o'qituvchi muloqot orqali darsni rejalashtiradi, boshlaydi, davom ettiradi va yakunlaydi. Tizimli, o'ylangan, pedagogik jihatdan mohir muloqot dars jarayonida tartib va intizomni mustahkamlaydi.

Pedagogik muloqotning samarasi uning mezonlariga amal qilishni taqozo etadi. Pedagogik muloqotning ta'lim sifatini kafolatlashi uchun u quyidagi mezonlarga mos bo'lishi zarur: tushunarliklik va aniqlik: o'qituvchining nutqi mantiqli, sodda, qisqa, tuzilmali va ravon bo'lishi shart; emotsional boylik: ohangdor nutq, samimiy muomala, o'quvchining holatini tushunish; demokratik yondashuv: har bir o'quvchining fikrini hurmat qilish, individual yondashuvga amal qilish; faollashtiruvchi texnikalar qo'llash: savol-javob, muhokama, guruhli ishlar, kreativ topshiriqlar o'quvchilarning muloqotga jalb qilinishini ta'minlaydi; qayta aloqa (feedback): o'quvchilarning fikrini eshitish, xatolarini to'g'ri ko'rsatish, yutuqlarini e'tirof etish — sifatni oshiradi.

Pedagogik muloqot juda qadimiy tushuncha bo'lishiga qaramasdan, uning zamonaviy talqini ham mavjud bo'lib, bugungi ta'lim texnologiyalarining jadal rivojlanishi muloqotning quyidagi yangi ko'rinishlarini yuzaga chiqarayotganligini ko'rish mumkin.

- Raqamli muloqot — onlayn platformalar, videodarslar, virtual sinflar orqali muloqot.

- Interfaol kommunikatsiya — interaktiv doska, mobil ilovalar, test dasturlari.

- Hamkorlikka asoslangan muloqot — o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi teng huquqli, hamkorlik ruhidagi muloqot.

Bu jarayonlarning barchasi ta'lim sifatining oshishiga, o'quvchilarning qamrab olinishi va faolligining ortishiga xizmat qiladi.

Pedagogik muloqotning maqsadga muvofiq tashkil etilishi ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bunda motivatsiya kuchayadi: o'qituvchi bilan ijobiy muloqotga ega bo'lgan o'quvchi darsni qiziqish bilan kuzatadi.

O'qituvchining qo'llab-quvvatlovchi, rag'batlantiruvchi so'zlari o'quvchining o'quv jarayoniga bo'lgan ichki motivatsiyasini oshiradi; bilim samarali o'zlashtiriladi: aniq, tushunarli, mantiqiy nutq orqali yetkazilgan axborot o'quvchilar tomonidan tezroq va chuqurroq o'zlashtiriladi.

O'qituvchining muloqot madaniyati yuqori bo'lsa, dars mazmuni aniq, tizimli va oson qabul qilinadi; o'quv faoliyatida faollikning oshadi: ochiq muloqotga asoslangan darsda o'quvchilar savol beradi, bahs-munozaralarda ishtirok etadi, o'z fikrini asoslashga harakat qiladi.

Bu jarayon o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiradi; psixologik muhitning yaxshilanishi: ijobiy psixologik atmosfera mavjud bo'lgan

jamoada o'quvchilar o'zlarini erkin tutadi, qo'rquv, tanglik, tortinchoqlik kabi holatlar kamayadi.

Pedagogik muloqot — ta'lim jarayonining yuragi bo'lib, uning samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining muloqot madaniyati, nutq mahorati va psixologik tayyorgarligiga bog'liq. Ijobiy muloqot natijasida o'quvchilarda motivatsiya kuchayadi, bilimlar chuqur o'zlashtiriladi, dars jarayonida o'zaro ishonch va hurmat shakllanadi.

Shunday qilib, pedagogik muloqot ta'lim sifati va samaradorligini oshiruvchi yetakchi omillardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Voxidova N. Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish. Ped. fanl. d-ri ... dis. (DSc) Dissert. – T., 2023.

2. Leontev A.N. Deyatelnost. Soznanie. Lichnost. – M.: Politizdat, 1975.- 304 s.

3. Ortiqov A. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – T.: "Dono hamro" ilmiy markazi, 2002. – 78 b.

4. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik. Toshkent: 2010y

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 23 sentyabrdagi O'PQ-637 son qonuni. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – T.: O'zbekiston, 2020.